



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

¹Sanobar Ollaberganova

²Sapayeva Boljon

¹Urganch davlat universiteti "Boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedrasida dotsenti

Email: sanobarollaberganova1965@gmail.com

²Urganch davlat universiteti "Boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedrasida katta o'qituvchisi

Email: sapayeva-1980mail.ru

BOSHLANG'ICH SINFLARDA XALQ OG'ZAKI IJODI ASARLARINI O'QITISH DARSLARIDA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Annotatsiya. Ushbu maqolada innovatsiya va novatsiya tushunchalarining mohiyati, innovatsion ta'lim metodlarining dars samaradorligini oshirishdagi o'rni, shuningdek, boshlang'ich ta'limda xalq ogzaki ijodi asarlarini o'rganish darslarida innovatsion ta'lim texnologiyalardan foydalanish masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: innovatsiya, novatsiya, xalq og'zaki ijodi, Klaster, Toifalash jadvali, Insert, BBB jadvali.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА УРОКАХ ПО ОБУЧЕНИЮ ПРОИЗВЕДЕНИЯМ УСТНОГО НАРОДНОГО ТВОРЧЕСТВА В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Аннотация. В данной статье освещаются сущность понятий инновация и новация, роль инновационных методов обучения в повышении эффективности урока, а также вопросы использования инновационных образовательных технологий на уроках изучения произведений устного народного творчества в начальном образовании.

Ключевые слова: инновация, новация, устное творчество, кластер, таблица категорий, вставка, таблица BBB.

THE USE OF INNOVATIVE EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN THE LESSONS OF TEACHING WORKS OF FOLK ORAL CREATIVITY IN ELEMENTARY GRADES

Annotation. This article covers the essence of the concepts of innovation and Novation, the role of innovative educational methods in improving the effectiveness of the lesson, as well as the use of innovative educational technologies in the lessons of studying the works of people's ogzaki creativity in primary education.

Keywords: innovation, novation, folkoral creativity, cluster, categorization table, Insert, BBB table.

Kirish. Ma'lumki, o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanish alohida o'rin tutadi. Xalq og'zaki ijodi materiallarini o'qitish metodikasi boshlang'ich ta'limda o'quvchilar ma'naviy-axloqiy tarbiyalash jarayonining samaradorligini kafolatlovchi manba va vositalardan biri sifatida e'tirof etilgan. Mazkur yondashuv ta'limning globallashuv sharoitida ham o'z ahamiyatini yo'qotmadi. Aksincha, o'quvchilarda nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirishda ularni samarali qo'llashga kundan kunga ehtiyoj ortib bormoqda. Shuningdek, boshlang'ich sinflarda xalq og'zaki ijodini o'qitish metodikasi o'quvchilarda og'zaki va yozma nutq ko'nikmasini, ijodiy fikrlash malakasini, kitobxonlik va nutq madaniyatini rivojlantirishda muhim manba sifatida foydalanishga ham diqqat etilmoqda. O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida umumiy o'rta ta'limning sifatini oshirish, o'quv jarayoniga zamonaviy va axborot texnologiyalarini joriy etishdagi keng qamrovli islohotlar natijasida boshlang'ich ta'limda sifatli ta'lim xizmatlari samaradorligini oshirish, shiddat bilan o'zgarib borayotgan globallashuv sharoitida ongli yashashga qodir shaxsni kamol toptirish va rivojlantirishni ta'minlovchi imkoniyatlar salmog'i kengaydi.

Hozirgi vaqtda ta'lim-tarbiya jarayonida pedagogik innovatsiyalarni keng ko'lamda qo'llash jahon taraqqiyotining global tendensiyasi hisoblanadi. Zamonaviy innovatsiyalar ko'lamining ortib borishi, mamlakatda modernizatsiya jarayoni tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan ayni davrda ta'lim sohasiga yangiliklarni tizimli ravishda kiritishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Darhaqiqat, yangilangan ta'lim tizimini joriy etishda har bir o'qituvchining o'z faniga va barkamol avlod ta'lim-tarbiyasiga oid yangiliklarni muntazam o'rgana borib, ularni o'z mehnat faoliyatida izchil qo'llay bilish mahoratiga ega bo'lishi bugungi kunning muhim talabidir. Novatorlikka qiziqish uyg'otish, yangilik yaratishga intiluvchan shaxsni tarbiyalash uchun ta'limning o'zi yangiliklarga boy bo'lishi, unda ijodkorlik ruhi va muhiti hukm surishi lozim.

Lug'aviy jihatdan "innovatsiya" tushunchasi ingliz tilidan tarjima qilinganda ("innovation") "yangilik kiritish" degan ma'noni anglatadi. Innovatsion ta'lim jarayonida qo'llaniladigan texnologiyalar innovatsion ta'lim texnologiyalari yoki ta'lim innovatsiyalari deb nomlanadi. Ta'lim innovatsiyalari "innovatsion ta'lim" deb

ham nomlanadi. Barcha sohalarda bo'lgani kabi ta'limda ham "novatsiya", "innovatsiya" hamda ularning mohiyatini ifodalovchi faoliyat to'g'risida so'z yuritiladi. Agar faoliyat qisqa muddatli, yaxlit tizim xususiyatiga ega bo'lib, faqatgina tizimdagi ayrim elementlarni o'zgartirishga xizmat qilsa u novatsiya (yangilanish) deb yuritiladi. Bordi-yu, faoliyat ma'lum konseptual yondashuv asosida amalga oshirilib, uning natijasi muayyan tizimning rivojlanishiga yoki uni tubdan o'zgartirishga xizmat qilsa, u innovatsiya (yangilik kiritish) deb ataladi.

Ta'lim jarayonini o'zgartirishga, yangilanishga olib keladigan innovatsiyalar ta'lim innovatsiyalari deb yuritiladi. Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, ta'lim innovatsionlari ta'lim jarayonini quyidagi o'zgarishlarga olib keladi:

- pedagogik tizimning tamomila o'zgarishi;
- o'quv jarayonining o'zgarishi;
- pedagogik nazariyaning o'zgarishi;
- o'qituvchi faoliyatining o'zgarishi;
- o'quvchi faoliyatining yangilanishi;
- pedagogik texnologiyaning o'zgarishi;
- ta'lim mazmunining yangilanishi;
- o'qitish shakl, metod va vositalarining o'zgarishi;
- ta'lim tizimi boshqaruvining o'zgarishi;
- ta'lim maqsadi va natijalarining o'zgarishi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda pedagog faoliyatining innovatsion xarakter kasb etishiga erishish masalasi o'tgan asrning 60-yillaridan boshlab jiddiy o'rganila boshlagan. Xususan, X.Barnet, J.Basset, D.Gamilton, N.Gross, R.Karlson, M.Maylz, A.Xeyvlok, D.Chen, R.Edem, F.N.Gonobolin, S.M.Godnin, V.I. Zagvyazinskiy, V.A.Kan-Kalik, N.V.Kuzmina hamda V.A.Slastenin kabi tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ishlarda innovatsion faoliyat, pedagogik faoliyatga innovatsion yondashish, innovatsion g'oyalarni asoslash va ularni amaliyotga samarali tadbiiq etish, xorijiy mamlakatlar hamda respublikada yaratilgan pedagogik innovatsiyalardan xabardor bo'lish orqali pedagog faoliyatida ulardan faol foydalanish borasidagi amaliy harakatlar mazmuni yoritilgan. Ta'lim jarayonidagi innovatsion o'zgarishlar, avvalo, o'qituvchining innovatsion faoliyatiga bog'liq. Innovatsion faoliyat – yangi ijtimoiy talablarning an'anaviy me'yorlarga mos kelmasligi yoki yangi shakllanayotgan g'oyalarning mavjud g'oyalarni inkor etishi natijasida vujudga keladigan majmualii muammolarni yechishga qaratilgan faoliyat.

Tadqiqot metodologiyasi. (Research Methodology). Boshlang'ich ta'limda dars beradigan o'qituvchilar o'quvchilarda ijodiy izlanuvchanlik, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish uchun innovatsion ta'limning asosiy maqsadi,

vazifalarini ongli ravishda his qilishlari lozim. Innovatsion ta'limning asosiy maqsadi ta'lim oluvchilarda kelajakka mas'uliyat hissini va o'z-o'ziga ishonchni shakllantirishdir. Aslida har bir o'qituvchi ijodkor, har bir o'tilgan dars uning betakror ijodining mahsuli bo'lishi kerak. Buning uchun pedagog pedagogik texnologiyalarni samarali usullarini qo'llay bilish mahoratiga ega bo'lishlik taqozo etiladi.

Hozirgi davr o'qituvchi va o'quvchilar oldiga katta talablar qo'yilmoqda. Bunda, asosan, darsning samaradorligi uning sifatligi va, albatta, zarur bilimlarni egallab olishdir. O'qituvchining asosiy vazifasi - har bir o'quvchi ruhiyatiga mumkin qadar yaqindan yondashish. Jamiyatimiz har bir fuqorosini ta'lim-tarbiya asoslari bilan tanishtirish, yosh avlodni barkamol inson qilib voyaga yetkazish jarayonini yangi pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlash davr taqozosidir. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga yangilik kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda interaktiv metodlardan to'liq foydalaniladi. Interaktiv metodlar bu jamoa bo'lib fikrlash deb yuritiladi. Bu metodlarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o'quvchi-talabalarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi bilan amalgam oshiriladi. Hozirda qo'llanilayotgan texnologiyalardan biri guruhlarda ishlashdir. Guruhlarda ishlash – ta'lim oluvchilarning faoliyatini tashkil qilishning shunday shakli, u, o'quv guruhlarini, ma'lum bir vazifani ochish hamkorlikda uchun, vaqtinchalik mikroguruhlariga ajratishni talab qiladi. Bu texnologiya o'qish darslarida badiiy asarlarni tahlil qilishga tatbiq etgan holda o'quvchilarda mustaqil fikrlashni o'rgatish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda o'quvchilarga qo'yilgan vazifaning mazmunini, uni yechish yo'llarini va usullarini belgilashni muhokama qilish taklif qilinadi. Mana shu muhokama jarayonida o'quvchilar o'z mustaqil fikrlarini aytib boradilar. Ta'lim oluvchilarning hamkorlikdagi harakati tashkillashadi, bu esa, o'quv-bilish jarayonini faollashtirishga, ularda empatiyani, kommunikativlikni shakllantirishga ko'maklashadi:

- vazifani hamkorlikda bajarish jarayonida, ta'lim oluvchilarda, o'rtoqlari tomonidan bildirilgan fikrlarni muhokama qilishga motivatsiya paydo bo'ladi;
- ta'lim oluvchilar bir-biriga savollar beradilar, shuning uchun, ular savollarni shakllantirishni bilishlari zarur, javoblarni - argumentlashtirishni, tushunishga erishish uchun esa, ular bir-birini diqqat bilan eshitishlari kerak;
- guruhlarda ishlash paytida, zarurati bo'lganda, ta'lim oluvchilar yordam berishlarini so'raydilar va boshqalarga yordam berishni o'rganadilar.

Ta'lim maqsadlari - o'quvchi, ta'lim olishning oxirida egallashi zarur bo'lgan bilimlar, mahoratlar, ko'nikmalar va ko'rsatmalar yig'indisidan iborat. Ta'lim oluvchilarni guruhlariga birlashtirishda quyidagi belgilarga qarab amalga oshiriladi:

- birinchidan, tasodifiy belgi bo'yicha:

– buning uchun, ta’lim oluvchilarga 1 dan 5 gacha ketma-ket sanashlarini iltimos qilinadi, keyin esa, “birinchilarni”, “ikkinchilarni”, “uchinchilarni” va hokazo kichik guruhlariga birlashtiramiz;

– yoki ta’lim oluvchilarni, sinf xonasida joylashganliklariga qarab, ixtiyoriy guruhlarga birlashtirimiz mumkin.

Hozirgi vaqtda maktab o‘quvchilarini o‘qitishning an’anaviy usullardan tubdan farq qiladigan va eshituvchilarning faollik darajasini oshiradigan yangi pedagogik va axborot texnologiyalarning uslublari ishlab chiqilgan va o‘quv jarayonlarida keng qo‘llanib kelinmoqda. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi o‘qitish jarayoniga yangi ta’lim texnologiyalarini kiritib, “noan’anaviy ta’lim” usullaridan: “Konferensiya darsi”, “Seminar darsi”, “Aralash darslar”, “O‘yinchoqlar yordamida dars o‘tish”, “Kasbga bog‘lab dars o‘tish”, “Badiiy adabiyotlarni o‘rganish va tahlil qilish”, “Evrika” (O‘ylab top); ta’limning qiziqarli faol usullaridan: “Kichik va katta guruhlarda ishlash”, “Rolli o‘yinlar”, “Sahna ko‘rinishi”, “Krossvordlar yechish”, “Zakovat savollari”, “Test-sinov” topshiriqlari, “Turli tarqatma materiallardan foydalanib dars o‘tish”, “Sinkveyn o‘yinlari”; shuningdek, ta’limning innovatsion (yangi) usullari: “Modifikatsiyalashgan ta’lim”, “Improvizatsiya”, “Aqliy hujum”, “Debat”, “Tanqidiy tafakkurni rivojlantiruvchi usul”, “Klaster usuli”, “Muammoli vaziyat”, “Muayyan holat, vaziyatni o‘rganish, tahlil qilish”, “Har kim har kimga o‘rgatadi”, “Nuqtayi nazaring bo‘lsin”, “Multimediya” va boshqalarni qo‘llash muhimdir. Zamonaviy ta’limni tashkil etishga qo‘yiladigan talabalardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir.

Ta’limga innovatsion yondashuvlardan biri dars jarayonida grafik organayzerlarni qo‘llashdir. Grafikli organayzerlar (tashkil etuvchi) – fikriy jarayonlarni ko‘rgazmali taqdim etish vositasi hisoblanadi. Ular o‘z xususiyatiga ko‘ra quyidagicha guruhlanadi:

1. Ma’lumotlarni tarkiblashtirish va tarkibiy bo‘lib chiqish, o‘rganilayotgan tushunchalar (voqea va hodisalar, mavzular) o‘rtasidagi aloqa va o‘zaro bog‘liqlikni o‘rnatish usul va vositalari: Klaster, Toifalash jadvali, Insert, BBB jadvali.

2. Ma’lumotlarni tahlil qilish, solishtirish va taqqoslash usul va vositalari: T-jadvali, Venn diagrammasi.

3. Muammoni aniqlash, uni hal etish, tahlil qilish va rejalashtirish usullari va vositalari: “Nima uchun?”, “Baliq skeleti”, “Piramida”, “Nilufar guli” sxemalari, “Qanday?” ierarxik diagrammasi, “Kaskad” tarkibiy-mantiqiy sxemasi.

“BBB” (bilaman, bilishni xohlayman, bilib oldim) metodining maqsadi – talabalarning mavzu yuzasidan olgan yoki bilgan ma’lumotlarini tahlil qilish uchun yo‘naltirilgan.

Konseptual jadval. Yozma ish oldidan materialni uyushtirishning yana bir usuli bor, bu – kontseptual jadval. Uchta va undan ko‘p jihatlar yoki savollarni taqqoslash taqozo etilganida ushbu usul ayniqsa foydali bo‘ladi. Jadval quyidagicha tuzilishi mumkin:

“KONSEPTUAL JADVAL” USULI

Sehrli ertaklar	Hayvonlar haqidagi ertaklar	Hayotiy-maishiy ertaklar	Ertaklardan namunalar
Laylakvoy, Chol va kampir .			Ur to‘qmoq
		«Uch og‘a-ini botirlar» ertagida mo‘ysafid ota o‘z o‘g‘illarini baquvvat qilib o‘stiradi, ertak yoshlarda har qanday vaziyatda	Uch og‘a ini botirlar

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Dars samaradorligini oshirish mezonlaridan biri - darslarda interfaol usullarni qo‘llashdan iborat. Bugungi kun o‘qituvchisi yangilikka intiluvchan, uni to‘g‘ri qabul qilib o‘z o‘quvchisiga yuksak darajada yetkaza olish zarurdir. Darslarni yuqori darajada tashkil qilish va o‘tkazish uchun avvalo o‘qituvchining o‘zi pedagogik jihatdan mahoratga ega bo‘lishi zarur. Shundagina bunday o‘qituvchi yosh avlodni har jihatdan yetuk va barkamol inson qilib tarbiyalay oladi va unda eng oliy insoniy fazilatlariga ega yosh avlod buyuk kelajagimiz egalari hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. Qosimova K., Matchonov S. , G‘ulomova X., Yo‘ldasheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi. -Toshkent, «Nosir», 2009.
2. Ro‘ziyeva D., Usmonboyeva M., Xoliqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo‘llanilishi.- Toshkent, 2015.- 208 b.
3. Ishmuhamedov R. Ta’limda innovatsiya.- Toshkent: “Fan va texnologiyalar”, 2010.